

HINDIY TILIDAGI OMONIM SO‘ZLARNING GRAFIK XUSUSIYATLARI

Zubayda Nurmatova Dilshod qizi

3rd-year PhD researcher

Tashkent State University of Oriental Studies

Email: zubaydanurmatova43@gmail.com

Phone: +998 99 138 31 92

Annotatsiya: *Ushbu maqolada hindiy tilidagi omonim so‘zlarning grafik xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda Devanagari yozuv tizimining o‘ziga xos jihatlari, xususan, harf va grafemalarning qo‘llanishi, matra tizimi, ligaturalar hamda yozuvdagi ayrim ortografik xususiyatlarning omonimlarning shakllanishi va farqlanishidagi roli yoritiladi.*

Shuningdek, bir xil yoziladigan, ammo turli ma’noga ega bo‘lgan so‘zlarning grafik jihatdan mos kelishi hamda ayrim hollarda ularning yozuv orqali farqlanish imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, grafik omillar ham hindiy tilida omonimiyaning yuzaga kelishida va uni idrok etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: *omograf, lekik omograf, leksik-morfemik omograf, semantic farqlanish, urg‘u farqlari;*

Omograf (yunoncha *homós* — «bir xil», *graphō* — «yozaman») — yozilishi bir xil, lekin talaffuzi turlicha bo‘lib, ma’nolari farq qiladigan so‘zlar.

Masalan: *вѣтлѣш I* kimdandir shikoyat qilmoq; *вѣтлѣш II* — «ellik (pul haqida)»; *ѣре I* toza; *ѣре II* doimo, har doim; *вѣшке I* (вашкаш fe’lidan, buyruq mayli, 2-shaxs, birlik shosh!); *вѣшкѣ II* tez orada, yaqin vaqt ichida³².

O.Axmanova omograflarga quyidagicha ta’rif beradi (inglizcha *homographs*): yozilishi bir xil bo‘lgan, lekin turli so‘zlar, masalan: *зѣмок* — «saroy»; *замѣок* — «qulf³³».

Omograflarni omoformalardan adashtirish mumkin. Ularni farqlash quyidagi tamoyilga asoslanadi: agar urg‘u so‘z ildiziga tushsa — bu omograflar, agar urg‘u suffiksiga tushsa — bu omoformalar. Masalan: *нѣле I* og‘ir, qiyin; *нѣле II* u yutdi; *вѣле I* faqat (cheklovchi yuklama); *вѣле II* u tomizdi.

Bu holatda so‘zlar bir xil yoziladi, lekin turlicha talaffuz qilinadi va ma’nolari farq qiladi. Chunki har ikkala holatda ham urg‘u ildizga tushmoqda, demak, bu — omograflar.

³² Галкина-Федорук, Е.М. К вопросу об омонимах в русском языке. Русский язык в школе. 1954. № 3. - С. 14–19.

³³ Ахманова, О.С. Очерки по общей и русской лексикологии. - М., 1957. – С. 295.



Agar néle II va véle II so‘zlarida urg‘u ikkinchi bo‘g‘inga, ya‘ni -e suffiksiga (3-shaxs birlik, o‘tgan zamon qo‘shimchasi) tushganida, unda bu so‘zlar omoformalar bo‘lgan bo‘lardi.

Zamonaviy mariy tilida omograflar kam uchraydigan hodisa bo‘lib, leksikologiyada katta qiziqish uyg‘otmaydi.

Omografiya tilning grafik tizimi bilan bevosita bog‘liq. Mariy tilida omograflarning quyidagi guruhlarini ajratish mumkin:

I. Birinchi guruh — bir xil so‘z turkumiga mansub so‘zlarning taqqoslanadigan yozuvlari, ya‘ni leksik omograflar.

II. Ikkinchi guruh — turli so‘z turkumlariga mansub so‘zlarning taqqoslanadigan yozuvlari, ya‘ni leksik-grammatik omograflarni tashkil etadi. Masalan: о́йла I (ot) nutqqa o‘xshash; о́йла́ II u gapiradi (3-shaxs, birlik); илэ́ I (sifat) nam, ho‘l; йле́ II (fe‘l, buyruq mayli, 2-shaxs, birlik) yasha³⁴!

Omograflar quyidagi turlarga bo‘linadi:

1. Leksik omograflar - bir xil yozuv shakliga ega bo‘lgan, ammo turlicha mazmun va qo‘llanilishga ega bo‘lgan birliklardir. Bunday omograflar orasida leksiko-fonetik omograflar (masalan, конечно albatta va конечно chegarali), leksiko-aksentologik omograflar (замок qal‘a va замо́к qulf), hamda grafemik farqlanishsiz omograflar (мел bo‘r va мел fe‘lning o‘tgan zamon shakli) mavjud.

2. Leksiko-morfemik omograflar — turli morfemalardan tashkil topgan bo‘lsa-da, yozuv shakli bir xil bo‘lgan birliklardir. Masalan, ма́терей (ot “ona” so‘zining ko‘plik shakli) va ма́терей (fe‘lning shakli), yoki разо́рьсь (imperativ fe‘l) va разо́рьсь (ot).

E.Tilevning³⁵ fikriga ko‘ra omograflar quyidagi holatlarda yuzaga keladi:

1. Semantik farqlanish: хаос I – qadimgi yunon falsafasida cheksizlik va хаос II – betartiblik; характерный I o‘ziga xos xususiyatli va характерный II irodali, qaysar.

2. Urg‘u farqlari: замо́к I qal‘a va замо́к II qulf; мука́ I un va му́ка II azob; у́жин I kechki ovqat va ужин́ II hosil, o‘rim.

Quyida hindiy tilidagi qisman omograflar undosh va unli tovushlarning xususiyatlariga ko‘ra bir necha kichik guruhlariga bo‘lib o‘rganildi hamda tahlil qilindi.

Hindiy tilidagi qisman omograflarning undosh tovushlar asosidagi xususiyatlari

I. Sof va nafasli undosh tovushlar orqali farqlanadigan qisman omograflar:

Hindiy tilida nafasli yoki nafassiz portlovchi undoshlar ma‘no farqlab, ya‘ni undoshdan keyin kuchli nafas chiqishi (aspiratsiya) bo‘lishi yoki bo‘lmasligi — bu alohida fonemalar: quyidagi qisman omograflar orasidagi farqi aynan aspiratsiya

³⁴ Ласточкина, Е. Лексико-семантические особенности омонимов в марийском языке. Автореф. Дисс...канд.филол.наук.- Эстония. 2016. – С. 76.

³⁵Тилев, Е. Омографы как составная часть омонимики современного русского языка. - Пловдив, 2010. – С. 5.



hodisasi asoslanadi ³⁶. Mazkur paragrafda keltirilgan misollar S.N.Sinhning “Samanya Hindi³⁷” asaridan olingan.

1. Ushbu kichik guruhda **क** [k] (nafassiz) va **ख** [k^h] (nafasli) tovushlari o‘rtasidagi farq semantik differensial vazifani bajaradi va so‘z ma’nosini to‘liq o‘zgartiradi.

काल [kāl]: davr, vaqt, zamon

खाल [khāl]: teri, po‘st, qobiq;

मकी [makī]: makkajo‘xori;

मक्खी [makkhī]: pashsha;

झक [jhak]: xohish, istak, o‘tinch;

झख [jhakh]: o‘qish, o‘rganish;

Bu ikki juftlikda k – kh tovushlaridagi aspiratsion farq ma’noni farqlaydi.

2. Mazkur kichik guruhda **ग** [g] (nafassiz) va **घ** [g^h] (nafasli) undoshlari orasidagi aspiratsion farq ma’no farqlovchi (semantik differensial) funksiyani bajarib, so‘zning leksik mazmunini tubdan o‘zgartiradi.

गोल [gol] doira, aylana;

घोल [ghol] aralash;

गिरना [girnā] yiqilmoq, tushib ketmoq;

घिरना [ghirnā] o‘rab olinmoq;

ओग [og] haq, to‘lov;

ओघ [ogh] oqim, yo‘nalish, to‘lqin;

3. Ushbu kichik guruhda **ज** [j] (nafassiz) va **झ** [j^h] (nafasli) tovushlari o‘rtasidagi farq semantik differensial vazifani bajaradi va so‘z ma’nosini to‘liq o‘zgartiradi. Bu juftlikda j-jh undoshlari o‘rtasidagi aspiratsion farq mavjud.

जूठा [jūṭhā]: qoldiq (taom)

झूठा [jhūṭhā]: yolg‘onchi, aldamchi;

सूजना [sūjñā]: shishmoq, bo‘rtmoq;

सूझना [sūjhnā]: aqliy holat: tushunmoq, fahmlamoq;

अरूज [arūj]: sog‘lom, bardam

अरूझ [arūjh]: hosilni yig‘moq

4. Mazkur kichik guruhda **त** [t] va **थ** [t^h] tovushlari o‘rtasidagi farq semantik differensial vazifani bajaradi va so‘z ma’nosini to‘liq o‘zgartiradi. Bu qarama-qarshilik hindiy tilida dentallarning aspiratsiyasi orqali ma’no farqlanishini ko‘rsatadi.

ताली [tālī] qarsak, qarsak chalish;

थाली [thālī] lagan, tovoq, tarelka;

माता [mātā] ona

माथा [māthā] peshona, boshning old qismi

अपत्य [apatya] farzand, bola, avlod

अपथ्य [apathya]: sog‘liq uchun zararli ovqat

5. Mazkur kichik guruhda **द** [d] (nafassiz) va **ध** [d^h] (nafasli) tovushlari o‘rtasidagi farq semantik differensial vazifani bajaradi va so‘z ma’nosini to‘liq o‘zgartiradi.

दूत [dūt] elchi, xabarchi

धूत [dhūt] tozalangan, poklangan.

अवदान [avdān] ehson, hadya, ehson

अवधान [avdhān] e‘tiborli, xushyor;

मद [mad] kibr, g‘urur

मध [madh] sharob, may;

³⁶Terry, P.F. List of minimal pairs in Devanāgarī/Hindi (3rd try) [Online forum post] // Google Groups: alt.language.hindi. – 2004.

³⁷ Sinh, S.H.N. Samanya Hindi. – India. 2021. Crown publication. – P. 187-198.





6. Mazkur guruhda labial undoshlar **ब** [b] va **भ** [b^h] orasidagi farq jaranglilik va aspiratsiya belgilariga asoslanib, jarangli–nafasli tovushlar qarama-qarshiligini ifodalaydi.

बाप [bāp] ota, padar;

भाप [bhāp] bug‘;

बोली [bolī] sheva, lahja;

भोली [bholī] aybsiz;

ऐब [eib] ayb, nuqson, kamchilik

ऐभ [eibh] fil bilan bog‘liq, filga oid.

7. Mazkur kichik guruhda **ट** [t̪] (nafassiz) va **ठ** [t̪^h] (nafasli) tovushlari o‘rtasidagi farq semantik differensial vazifani bajaradi va so‘z ma‘nosini to‘liq o‘zgartiradi.

छटा [chhatā] qandil, yorqinlik, lustra

छठा [chhat̪hā] oltinchi;

आँटी [āñṭī] ip bo‘lagi;

आँठी [āñṭhī] meva ildizi;

जूटा [jūṭā] juta (ip tayyorlanadigan o‘simlik tolasi);

जूठा [jūṭhā] axlat, chiqindi;

8. Mazkur kichik guruhda **ड** [ḍ] va **ढ** [ḍ^h] tovushlari o‘rtasidagi farq semantik differensial vazifani bajaradi hamda so‘z ma‘nosini to‘liq o‘zgartiradi. Bu qarama-qarshilik hindiy tilida retrofleks undoshlarning aspiratsiyasi orqali ma‘no farqlanishining aniq dalilidir.

डाल [ḍāl]: shox, novda, bo‘lim, tarmoq;

ढाल [ḍhāl]: qalqon, himoya vositasi;

डीठ [ḍīṭh]: nazar, qarash;

ढीठ [ḍhīṭh]: bezbet, uyatsiz, or-nomussiz;

डाक [ḍāk]: pochta, xabar;

ढाक [ḍhāk]: “Butea monosperma” — hind daraxti nomi;

9. Ushbu kichik guruhda **ड़** [ṛ] va **ढ़** [ṛ^h] tovushlari orasidagi farqlanish semantik differensial omil sifatida namoyon bo‘ladi va natijada so‘zning leksik ma‘nosi to‘liq o‘zgaradi. Bu hodisa hindiy tilidagi retrofleks undoshlarning aspiratsiyasi ma‘no farqlovchi fonemik birlik ekanini yaqqol ko‘rsatadi.

कड़ाई [kaṛāī]: qattiqlik, qo‘pollik;

कढ़ाई [kaṛhāī]: kashta tikish san‘ati;

पड़ना [paṛnā]: yiqilmoq, tushmoq;

पढ़ना [paṛhnā]: o‘qimoq;

रूड़ [rūr]: eng yaxshi, a‘lo;

रूढ़ [rūr̪h]: keng tarqalgan, mashhur;

Ma‘lumki, hindiy fonetik tizimida tovushlarning alpaprāṇa (kichik nafasli) va mahāprāṇa (kuchli nafasli) fonemalari o‘rtasidagi farqning mavjudligini ko‘rsatadi.

Alpaprāṇa talaffuz jarayonida nafas chiqishi kuchsiz bo‘lgan, ya‘ni aspiratsiyasiz undosh fonemalarga nisbatan ishlatiladigan termin. Bunda tovush paydo bo‘lishida havo oqimi minimal, tovush paychalari tebranishi esa faol bo‘ladi.

Mahāprāṇa sanskrit va hind fonetikasida “kuchli nafas bilan talaffuz qilinadigan” undoshlarni bildiruvchi termin.

Bu tovushlarni aytishda nafas chiqishi kuchli (aspiratsiyalangan) bo‘ladi, ya‘ni talaffuz paytida tovush paychalari orasidan aniq eshitiladigan havo oqimi chiqadi.





Ushbu hodisa hind tillarida aspiratsiya (nafas chiqarish)ning ma'no farqlovchi fonematik belgi sifatida faol ishlashini tasdiqlaydi. Ushbu guruhga 18 ta omonim birliklar misol qilib keltirildi.

II. Serebral va sof (dental) undosh farqiga asoslangan qisman omograflar

Hindiy tilida tiloldi undoshlarining ikki xil chiqish o'rni mavjud: tiloldi va serebral (tilorqa, tilning tanglayga qayrilgan holida). Misollar:

a. Ushbu kichik guruhda **र** [r] va **ड़** [r̥] tovushlari o'rtasidagi farqlanish semantik differensial omil sifatida namoyon bo'lib, so'zning leksik ma'nosini to'liq o'zgartiradi. Ushbu hodisa hindiy tilida serebral undoshlarning artikulyatsion xususiyatlari orqali ma'no farqlanishining yaqqol dalilidir.

हँकरना [haŋkaɾnā] ovoz chiqarmoq, chaqirmoq, baqirmoq

हँकड़ना [haŋkaɾnā] kibrlanmoq, mag'rurlanmoq, dimog'dor bo'lmoq

नीर [nīr] suv;

नीड़ [nīr̥] uy, in, makon;

चूर [chūr] eng yuqori joy, cho'qqi

चूड़ [chūr̥] zarracha, qum zarrasi, chang;

b. Ushbu kichik guruhda **त** [t] va **ट** [t̥] tovushlari o'rtasidagi farqlanish semantik differensial omil sifatida namoyon bo'lib, so'zning leksik ma'nosini to'liq o'zgartiradi. Bu hodisa hindiy tilida dental va retrofleks undoshlarning artikulyatsion farqlanishi orqali ma'no farqlovchi fonemik oppozitsiyani yuzaga keltirishining yaqqol dalilidir.

मोती [motī] marvarid, dur, marvarid donasi;

मोटी [mot̥ī] semiz, yo'g'on (ayol shakli);

भात [bhāt] pishgan guruch, palovlik guruch

भाट [bhāt̥] Bhat — hind kastasiga mansub shaxs; baxshi, qo'shiqchi

तल [tal] tag, pastki qism, zamin;

टल [t̥al] Tal (Pokistondagi shahar nomi);

c. Mazkur kichik guruhda **द** [d] va **ड** [d̥] tovushlari orasidagi farq ma'no ajratuvchi fonemik omil sifatida namoyon bo'lib, so'zning leksik ma'nosini butunlay o'zgartiradi. Bu hodisa hindiy til fonologik tizimida tiloldi va serebral undoshlarning artikulyatsion qarama-qarshiligi orqali semantik differensiallikning yuzaga kelishini yaqqol ifodalaydi.

दाह [dāh] rashk, hasad;

डाह [d̥āh] yonmoq, yondirmoq;

दाम [dām] narx, baho;

डाम [d̥ām] bog'lamoq, ushlab turmoq;

तुंद [tund]: oshqozon, qorin

तुंड [tund̥]: og'iz, tumshuq, burun;

III. Jarangli va jarangsiz undoshlar orqali farqlanuvchi omograflar

1. Hindiy tilida jarangli va jarangsiz portlovchi undoshlar alohida fonemalardir. **ब** [b] jarangli lab-lab portlovchi undosh bo'lib, talaffuz chog'ida ovoz paychalari



tebranadi. **प** [p] esa jarangsiz lab-lab portlovchi undosh bo‘lib, talaffuz paytida ovoz paychalari tebranmaydi.

बल [bal] kuch-quvvat;

पल [pal] lahza, on;

बाप [bāp] ota;

पाप [pāp] gunoh, ayb, jinoyat;

दर्ब [darb] ezilish, bosilish, pastlik;

दर्प [darp] mag‘rurlik, g‘urur, kibr;

2. Hindiy tilida jarangli va jarangsiz portlovchi undoshlar alohida fonemalardir. **ग** [g] jarangli portlovchi undosh bo‘lib, talaffuz chog‘ida ovoz paychalari tebranadi. **क** [k] esa jarangsiz portlovchi undosh bo‘lib, talaffuz paytida ovoz paychalari tebranmaydi.

कंगाल [kaṅgāl] kambag‘al, bechor, mol-mulksiz;

कंकाल [kaṅkāl] skelet, suyak tizimi

अंग [aṅg] tana a‘zosi;

अंक [aṅk] miqdor, son;

छाग [chhāg] echki, uloq;

छाक [chhāk] taom, ovqat;

3. Mazkur to‘rt juftlikda **द** [d] va **त** [t] undoshlari o‘rtasida jaranglilik farqi mavjud. **द** [d] jarangli tiloldi portlovchi undosh bo‘lib, talaffuz chog‘ida ovoz paychalari tebranadi, **त** [t] tovushi esa jarangsiz tiloldi portlovchi undosh bo‘lib, talaffuz paytida ovoz paychalari tebranmaydi.

अंदर [aṅdar] ichkari;

अंतर [aṅtar] farq, turli xillik;

ईदी [īdī] hayit sovg‘asi;

ईति [īti] xulosa, yakuniy natija;

उत्पाद [utpād] natija, yaratilgan buyum, ishlab chiqarish mahsuli;

उत्पात [utpāt] tartibsizlik, notinchlik, g‘alayon;

IV. Hindiy tilida **श** (ś) va **ष** (ṣ) tovushlari artikulyatsion jihatdan bir-biriga juda yaqin bo‘lsa-da, ular fonemik darajada farqlanadi. Birinchisi — tanglay sirg‘aluvchi tovush **श** (ś), ikkinchisi esa serebral sirg‘aluvchi tovush **ष** (ṣ) hisoblanadi. Ushbu ikki fonema artikulyatsiya joyidagi farq orqali ma‘no farqlovchi (semantik differensial) belgi sifatida namoyon bo‘ladi.

ईश [īś] xudo, hukmdor, boshqaruvchi;

ईष [īṣ] orzu-havasli inson;

ईशा [īśā] ma‘buda, xudojo‘ya ayol ilohiy kuch timsoli;

ईषा [īṣā] istak, orzu, xohish ifodasi;

कोश [koś] lug‘at, so‘zlar majmuasi;

कोष [koṣ] sandiq, g‘azna, saqlash joyi;

V. Hindiy tilida **न** (n) va **ण** (ṇ) tovushlari artikulyatsion jihatdan bir-biriga juda yaqin bo‘lsa-da, ular fonemik darajada farqlanadi. Birinchisi — tiloldi burun undosh **न** (n), ikkinchisi esa — serebral burun undosh **ण** (ṇ) hisoblanadi. Ushbu ikki fonema artikulyatsiya joyidagi farq orqali ma‘no farqlovchi (semantik differensial) belgi sifatida namoyon bo‘ladi.



अनु [anu] orqa, kurak;

लवन [lavan] yonish, kuylash, yoqish jarayoni

वन [van] o'rmon, jungli;

अणु [aṇu] quloq;

लवण [lavaṇ] tuz, sho'r modda;

वण [vaṇ] kamaytirish;

VI. Yakka va qo'sh undoshlar: Mazkur guruhda yakka va qo'sh undoshlar ishtirokida misollar berilgan. Ularning ishtirokida semantik differentsiatsiya ko'rib chiqiladi:

1. **न/न्न** [n-nn]:

आसन [āsan] o'rindiq;

कदन [kadan] urish, jang;

आसन्न [āsann] yaqin, yaqinlashgan;

कदन्न [kadann] ezilgan, bosilgan, yanchilgan;

पन [pan] qaror, qabul, va'da;

पन्न [pann] kelgan, tashrif buyurgan;

2. **त-त्त** [t-tt]:

मरूत [marut] shamol, yel xudosi;

मरूत्त [marutt] Marutt (hind mifologiyasidagi shoh nomi);

3. **प/प्प** [p-pp]:

चपल [chupal] tez, chaqqon, epchil;

चप्पल [chappal] oyoq kiyimi, shippak, sandal;

4. **ल/ल्ल** [l-ll]:

मल [mal] kir, ifloslik;

मल्ल [mall] jangchi, pahlavon;

5. **क/क्क** [k-kk]:

हक [hak] haq, huquq, adolat;

हक्क [hakk] to'liq huquq, haqli talab, qonuniy da'vo;

Yakka hamda qo'sh undoshlar asosida yuzaga kelgan omonimik juftliklarning tahlili shuni ko'rsatadiki, bu hodisa hindiy tili fonetik tizimida fonematik darajada faol farqlovchi omil sifatida namoyon bo'ladi. Ular 6 xil undosh oppozitsiyasi - (**न/न्न, त/त्त, द/द्द, ल/ल्ल, क/क्क**) asosida shakllangan. Ushbu turkum ichida **न/न्न** modeli eng serunum bo'lib, u tahlil etilgan misollarning qariyb uchdan bir qismini tashkil etadi.

I. Hindiy tilidagi qisman omograflarning unli tovushlar asosidagi xususiyatlari

a) Qisqa-uzun unlilar:

अ / आ: [a - ā]:

असन [asan] ovqat, yegulik;

अगम [agam] kam uchraydigan, topish qiyin;

अयुक्त [ayukt] noo'rin, mos bo'lmagan, nomuvofiq;

आसन [āsan] o'rindiq;

आगम [āgam] erishish, qo'lga kiritish, yetishish;

आयुक्त [āyukt] tayinlangan, vakil qilingan, rasmiy lavozimdagi shaxs;





इ / ई: [i - ī]:

अरि [ari] dushman, raqib;

अलि [ali] asalari, kapalak;

अवधि [avadhi] muddat, vaqt
oralig'i;

उ / ऊ: [u - ū]:

हुंकार [huñkār] jasorat, jasurlik;

सुत [sut] o'g'il farzand, bola;

पुरी [purī] shahar;

ओ / औ: [o - ao]:

ओर [or]: tomon, taraf;

कोर [kor] qirg'oq;

कोशल [koshal] Kośala (qadimiy
geografik hudud nomi);

ए - ऐ: [e - ei]:

खेर [kher] "Kher" — o'simlik yoki joy
nomi;

देव [dev] xudo, ilohiy mavjudot;

Tahlilda besh asosiy unli oppozitsiya (अ/आ, इ/ई, उ/ऊ, ओ/औ, ए/ऐ) bo'yicha qisman omograf juftliklar aniqlandi. Ushbu juftlikda 67 ta misol aniqlanib, umumiy namunalarning 52,7 % ini tashkil etdi. Bu esa hindiy tilidagi cho'ziq unli [ī] ning fonematik kuchi yuqori ekanini ko'rsatadi. अ / आ (a / ā) juftligi (26,7 %) ikkinchi o'rinda turadi. उ / ऊ (u / ū) juftligi (13,4 %) asosan tovush, his-tuyg'u va fiziologik jarayonlarga taalluqli so'zlarda uchraydi.

ओ / औ (o / au) va ए / ऐ (e / ai) juftliklari kam uchraydi. (5,5 % va 1,5 %), Bu juftliklar dialektal va tarixiy qatlamlarda omonimiyani saqlab qolgan bo'lib, ular asosan joy nomlari, diniy va falsafiy terminlarda uchraydi.

b) Qisqa – uzun burunlashgan unlilar:

1. अं / आँ: [aṅ - āṅ]:

आंत [ānt] oxirgi, so'nggi;

टांक [ṭāṅk] sharob, may;

2. अँ - आँ: [aṅ - āṅ]:

अरी [arī] Ey, qiz! (ayol kishiga murojaat shakli);

अली [alī] do'st, o'rtoq;

अवधी [avadhī] "Avadhi" tili yoki madaniy
mintaqasi
(Shimoliy Hindistonning bir qismi);

हूँकार [hūñkār] hayqiriq, baqiriq, g'azabli
chaqiriq;

सूत [sūt] ip, tola, urchuqdan chiqqan ipak
tolasi;

पूरी [pūrī] to'la, to'liq;

और [aor]: va, hamda;

कौर [kaur] luqma, yutmoq, og'izdagi
ovqat bo'lagi;

कौशल [kauśal] mahorat, ustalik,
bilim, san'atda yuksaklik;

खैर [kheir] "Khair" - yaxshilik,
sog'lik, tinchlik, ezgulik;

दैव [deiv] taqdir, qismat;

आँत [āṅt] ovqat hazm qilish tizimi;

टाँक [ṭāṅk] juda oz narsa; kichik miqdor;





संकारी [saṅkarī] aralash, qorishiq, chatishtirilgan;

संवार [saṅvār] bezamoq, pardoz qilmoq;

हंसी [hansī] kulgi, tabassum;

3. **ए / ऐ**: [eṅ - ē]:

छेक [chek] uy hayvoni;

सँकारी [sākarī] tor, siqilgan, keng boʻlmagan;

सँवार [sāvār] yopish, oʻrash, qoplash;

हँसी [hāsi] oqqushning urgʻochisi;

छेक [chhenk] kesish buyumi;

Tahlil davomida jami aniqlangan omograf juftliklar 7 ta asosiy fonetik oppozitsiya turiga ajratildi. Eng faol guruh — **अ / अं** (a / aṅ) boʻlib, burun undoshi [ṅ] ishtiroki orqali maʼno farqlanishini yuzaga keltiradi. Keyingi oʻrinni **आं / आँ** (ā / ā̃) juftligi egalladi.

Xulosa

Ushbu tadqiqot natijalari shuni koʻrsatadiki, hindiy tilidagi omonim soʻzlarning grafik xususiyatlari tilning fonetik va ortografik tizimi bilan uzviy bogʻliqdir. Ayniqsa, Devanagari yozuvidagi harf, matra va ligaturalar, shuningdek urgʻu va fonetik oppozitsiyalar omograflarning shakllanishi va farqlanishida muhim rol oʻynaydi.

Tahlillar natijasida undosh va unli tovushlar oʻrtasidagi farqlar (aspiratsiya, jaranglilik, serebral–dental oppozitsiya, choʻziq-qisqa unlilar va burunlashuv) semantik differensial vosita sifatida faol xizmat qilishi aniqlandi.

Shunday qilib, omograflar hindiy tilida nafaqat grafik hodisa, balki fonetik va semantik tizim bilan chambarchas bogʻliq murakkab lingvistik birliklar boʻlib, ular tilning leksik boyligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ахманова, О.С. Очерки по общей и русской лексикологии. - М., 1957. – С. 295.
2. Галкина-Федорук, Е.М. К вопросу об омонимах в русском языке. Русский язык в школе. 1954. № 3. - С. 14–19.
3. Ласточкина, Е. Лексико-семантические особенности омонимов в марийском языке. Автореф. Дисс...канд.филол.наук.- Эстония. 2016. – С. 76.
4. Sinh, SH.N. Samanya Hindi. – India. 2021. Crown publication. – P. 187-198.
5. Terry, P.F. List of minimal pairs in Devanāgarī/Hindi (3rd try) [Online forum post] // Google Groups: alt.language.hindi. – 2004.
6. Тилев, Е. Омографы как составная часть омонимики современного русского языка. - Пловдив, 2010. – С. 5.

